

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
HO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

Qo'lyozma xuquqida
UDK: 619+636.7

ABDURASHITOV MUXAMMADJON XAMIDULLA O'G'LINING

**Itlarda o'smalarning tarqalishi diagnostikasi va davolashni
takomillashtirish**

**5A 440102 – Veterinariya jarroxligi
mutaxassisligi**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
veterinariya fanlari nomzodi,
dotsent B.D. Narziyev

Samarqand - 2016

M U N D A R I J A

	Kirish	3
I bob.	Adabiyotlar sharhi	15
1.1.	O’smalarning etiologiyasi va patogenezi	15
1.2.	O’smalar biologiyasi	17
1.3.	Hayvonlar orasida o’smalarning tarqalishi	20
1.4.	Hayvonlar uchraydigan o’smalarning klinik diagnostikasi	21
1.5.	Hayvonlarda o’smalarni oldini olish va davolash bo’yicha umumiy takliflar	25
	I bob bo’yicha xulosa	33
II bob.	Xususiy tadqiqotlar	34
2.1.	Tadqiqotlar obyekt va uslublari.....	34
2.2.	Immunologik tekshirishlar.....	35
2.3.	Gistologik tekshirishlar.....	39
2.4.	O’sma bilan kasallangan itlarning immunologik ko’rsatkichlari.....	42
2.5.	Itlar o’smalarini xirurgik yo’l bilan davolash.....	46
2.6.	Operasiyadan keyin itlar immun tizim faoliyatini kuchaytirish.....	47
	II -bob bo’yicha xulosa	50
III bob.	Tadqiqot natijalari bo’yicha mulohazalar	51
	III bob bo’yicha xulosa	53
	Xulosa	54
	Amaliy tavsiyalar	54
	Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	55
	Ilova	61

Kirish

Prezidentimiz tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilib, mamlakatimiz aholisini chorva maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, aholini sifatli chorva maxsulotlari bilan ta'minlash hamda respublikamizda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va sifatini yaxshilash borasida ko'pgina qaror va qonunlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Jumladan, 23 mart 2006 yilda chiqarilgan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirilishini rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" 308 – qarori va "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2008 yil 21 apreldagi PK-842 qarori chorvachilikni rivojlantirishga juda katta turtki bo'lib xisoblanadi.

Respublikimiz mintaqasida kechayotgan iqtisodiy isloxotlar asosida yangi mulkchilikda shakllangan tipdagi xo'jaliklarni yaratish, bu xo'jaliklarni iqtisodiy va xususiy negizlarini ishlab chiqish shu asosida axolini oziq – ovqatga bo'lgan extiyejini qondirish, ma'naviy – mafkuraviy yangi dunyoqarashni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa o'tgan xar bir kunimizning mazmuni naqadar boy benazir ekanini yakkol namoyon etadi. Shak-shubxasiz bunday o'lkan ko'tarilish, tarakkiyot jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muxtaram I. A. Karimov olib borayotgan siyosat natijasidir.

«Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi to'g'risida

Xalqimizning asriy an'analarini hisobga olib, «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-e'tibor muhitini

shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin, quyidagilar uning ustuvor vazifalari va amalga oshirilishi yo'nalishlari etib belgilansin:

oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur shart-sharoitlar yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish, qishloq aholisini toza ichimlik suv, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va servis darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlarning moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot hamshiralari sonini ko'paytirishni ta'minlash, akusher-ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish;

nikohga kirayotgan shaxslarning nikohdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish hamda ushbu maqsadlarda poliklinikalarni zamonaviy tashxis uskunalari bilan jihozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mustahkam oila qurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muhimligini aholi

keng qatlamlari ongiga singdirishga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish;

aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sanitariya va gigiyena, homilador ayollarning sog'lig'ini saqlash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarish qilish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, ularning ovqatlanish rasioni sifati va kaloriyasi yaxshilanishini ta'minlash;

yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash;

mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni, xususan, o'zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o'rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida mehr-oqibat ruhini shakllantirish;

qiz bolalarni - bo'lajak onalarni - jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan tarzda voyaga yetkazish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari albatta ta'lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularning hayotda munosib o'rin egallashlarida, kelajakda sog'lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblangan hayotga bo'lgan mustahkam nuqtai nazarni va mustaqil fikrlashni shakllantirish;

sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yanada rivojlantirish, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish;

kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini, avvalo qizlarni ishga joylashtirish, o'z biznesini yo'lga qo'yish ishtiyoqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari ajratish chora-tadbirlarini ta'minlash;

dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotin-qizlar va yoshlar birlashmalari, faxriylar tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu ishlarga jamiyatda hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan keksa avlod vakillarini keng jalb etish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan elektron axborot vositalarining va Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda Dasturning amalga oshirilishi to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 10 dekabrda F-4577-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Respublika komissiyasiga Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yuklansin.

bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari boshchiligida Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tashkil etilishini ta'minlasin, ularga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar so'zsiz, to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni yuklasin;

ikki hafta muddatda vazirliklar, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan har bir davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha «Sog'lom ona va bola yili» tarmoq va hududiy dasturlari ishlab chiqilishi va qabul qilinishini;

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq va o'z vaqtida bajarilishiga qaratilgan ishlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari darajasida muvofiqlashtirilishini ta'minlasin, tadbirlar amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin;

yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risidagi axborot taqdim etilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Davlat dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va chora-tadbirlar bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog'i jalb etilgan holda aholi orasida muntazam, tizimli va keng yoritilishini;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda amalda ishtirok etishi va aniq ulush qo'shishi aks ettirilgan holda uning amalga oshirilishidan keng jamoatchilik doimiy ravishda xabardor qilinishini ta'minlasinlar.

Mustaqillik dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O'smalar muammosiz biologik va mediko-veterinar nuqtai nazardan katta qiziqish tug'diradi. Bu muammoni hal qilish maqsadida har xil soha olimlari o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Hayvonlarda blastomoz jarayonlarni o'rganish jihatidan katta ahamiyatga ega, ayniqsa taqqoslash patologiya aspektida (P.F. Terexov; V.F. Semiglazov, 1992).

O'smalar tabiatda ko'p tarqalgan odamdan tashqari barcha turdagi hayvonlarda uchraydi, shu jumladan uy, laborator va yirtqichlarda.

Shakli va tuzilishi jihatidan har xil bo'lishiga qaramasdan, lekin o'sish qonuniyatlari organizmga ta'siri va klinik ifodasi bir xil bo'lgan odam va hayvonlar o'smalari, boshqa kasalliklardan farqliroq yagona prinsipial guruh bo'lib umumbiologik ahamiyatga ega (P.F. Terexov; N.P. Napalkov, 1989).

Odam organizmi patologiyasida yomon sifatli o'smalar medisina nazariyasi va amaliyoti uchun katta va og'ir muammo bo'lib kelmoqda, u bilan kurashish sog'liqni saqlash uchun dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Hayvon o'smalari patologiyasini odamlar raki bilan taqqoslab bo'lmasa ham, lekin yomon sifatli o'smalar muammosi veterinariyada ham yetarlicha dolzarb nafaqat utilitar munosabatda, balki taqqoslash aspektida ham (V.A. Golubeva; G.S. Terentyuk, 2009).

Hayvonlar orasida, ayniqsa itlarda spontan o'smalarni tez kelib chiqishi tajribada o'rganish uchun qulay bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, itlar yashash tarzi bilan odamlarga juda yaqin bo'lib hisoblanadi. Shuning hisobidan klinik jihatdan odam va itlar o'smalarini o'sish qonuniyatlari bir-biriga o'xshash. Shuning uchun itlar o'smalarini o'rganish uzoq vaqt davomida o'sma jarayonini rivojlanishini va hayvon organizmiga ta'sirini klinik kuzatish, blastomoz o'sish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi (P.F. Terexov; V.I. Panomarkov, 1992).

Sut bezi o'smalari hayvonlarda, ayniqsa itlar orasida keng tarqalgan patologiya bo'lib hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra urg'ochi itlarning 30-40 % da 7-8 yoshdan keyin sut bezi o'smalari keng tarqalgan. Itlar orasida sut bezi o'smalarining yaxshi va yomon sifatli o'smalarni bir-biriga taqqoslaganda, yomon sifatlilari 42-73 % ni tashkil qiladi. Ular orasida metastaz beruvchi o'smalar 9,8 % ni tashkil qiladi (P.F. Terexov; S.V. Baranov, 1991).

Oxirgi yillarda hayvonlarda ham jarroxlik kasalliklar orasida keng tarqalib borayotgan patologiya - bu o'smalar patologiyasi bo'lib, umumiy kasalliklarning 5-10% ni tashkil qilmoqda. O'smalar muammosi biologik va tibbiyot - veterinariya nuqtai nazardan soxa mutaxassislarida katta qiziqish

tug'diradi. Bu muommoni hal qilish maqsadida ko'pgina olimlar tomonidan bir qator yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'smalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, odamlarda va barcha turdagi hayvonlarda uchraydi. Ular shakl tuzilishi jixatidan uy, laborator va yovvoyi hayvonlarda har xil bo'lishiga qaramasdan, o'sish qonuniyatlari, organizmga ta'siri va klinik ifodasi bo'yicha bir xil bo'ladi. Odam va hayvonlarning o'smalari, boshqa kasalliklardan farqi o'laroq yagona prinsipial gurux bo'lib umumbiologik ahamiyatga ega. (J. Dobrev, 1989, P.F.Terexov, I Grish. 1992 y.)

Hayvonlardagi o'smalar patologiyasini muhimligi jixatdan odamlar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli ya'ni xatarli o'smalar muammosi veterinariyada dolzarb bo'lib xisoblanadi. Oxirgi yillarda xizmat itlari va axoli qaramog'idagi itlar orasida o'smalar patologiyasi soni ko'payib bormoqda. Bu esa pitomniklarga va it egalariga tashvish keltirib, itlarning sog'ligiga ancha sezilarli zarar yetkazmoqdalar va xizmat itlarining ishdan chiqishiga sabab bo'lmoqda.

O'smalar itlar organizmi patologiyasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, xozirgi paytda veterinariya mutaxassisleri oldida dolzarb masala bo'lib turibdi.

O'smalarni davolash maqsadida tibbiyotda bir qator usullar jumladan, konservativ (ximioterapiya) nurlantirish va jarroxlik (operativ) va boshqa usullar qo'llanadi. Lekin o'smalar tibbiyot va veterinariyada asosan jarroxlik yo'li bilan davolanadi.

Shuning uchun ham ayni paytda bizning ishimiz xizmat itlarini xizmat samaradorligini oshiruvchi va itlarning onkologik kasalliklarini oldini olish va davolash chora tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tanlangan mavzu veterinariya xirurgiyasi amaliyoti uchun dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Tajribalar Samarqand qishloq xo'jalik instituti Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarroxlik va farmakologiya kafedrasida qoshidagi xirurgik klinikasida

va Samarqand viloyat Ichki Ishlarga qarashli xizmat itlarning pitomnigida bajariladi.

Material sifatida o'sma bilan kasallangan har xil zotdagi va yoshdagi itlarda olib boriladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Magistrlik dissertasiyasining asosiy maqsadi, itlarda uchraydigan o'smalarini diagnostika qilish, davolash va oldini olish yangi zamonaviy usullarini ilmiy va amaliy asoslash.

Qo'yilgan maqsaddan quyidagi vazifalar hal qilinishi kerak:

1. O'smalarini itlar orasida tarqalishi, dinamikasini aniqlash.
2. O'smalarni diagnostika qilish maqsadida zamonaviy usullarni qo'llash
3. O'smalarni davolash va oldini olishning bir qator usullarini samaradorligini qiyosy baxolash.

Ishning ilmiy yangiligi

1. O'smalarini itlar orasida tarqalishi, dinamikasini aniqlanadi
2. O'smalarni diagnostika qilish maqsadida zamonaviy usullarni qo'llanadi.
3. O'smalarni davolash va oldini olishning bir qator usullarini samaradorligini qiyosy baxolanadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari

So'nggi yillarda veterinariya onkologiyasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar sohada bir qator yutuqlarga erishishga olib kelmoqda. Shunga qaramasdan o'smalarning kelib chiqishi muammosi haligacha to'liq o'z yechimini topgan emas. Magistrlik dissertasiyasi tadqiqotlarining asosiy masalasi itlarda o'smalarni tarqalishini o'rganish, diagnostikasi va davolash usullarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda kasallikning uchrash darajasi aniqlanadi, diagnoz qo'yish hamda kompleks usulda davolash ishlari olib boriladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adbiyotlar sharhi

O'smalar muammosi biologik fanlar qatorida hamda tibbiyot va veterinariya xodimlari nuqtai nazarida katta qiziqish uyg'otib kelgan dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal qilish maqsadida ko'pgina soxa mutaxasislari ilmiy izlanishlar olib borib fan uchun kerakli bo'ladigan samarali yutuqlarga erishib, soxa rivojiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda xayvonlar organizmida kechadigan barcha turdagi patologiyalar orasida yomon sifatli o'smalar patologiyasi tibbiyot va veterinariya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim va dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Hayvonlar organizmida kechadigan o'smalar patologiyasini odamlarda kechadigan o'smalar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli o'smalar muammosi veterinariyada ham yetarlicha dolzarb muammo xisoblanadi. Qishloq ho'jaligi hayvonlarining o'sma bilan kasallanishi natijasida xo'jaliklarga katta iqtisodiy yetkaziladi, chunki bu kasallik bilan so'yilgan hayvonlarning go'shtidan zararlangan joylar olib tashlanadi, bundan tashqari hayvon va parrandalarning bosh sonini ko'paytirishga to'skinlik qilib maxsuldorligini kamaytiradi va ba'zi xolatlarda hayvon o'limiga olib keladi.

Hayvonlar organizmida sodir bo'ladigan blastomotoz jarayonlarni o'rganish muhim vazifa bo'lib, ayniqsa taqqoslash patologiya aspektida katta ahamiyatga ega. O'smalar tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, odamlar hamda barcha turdagi hayvonlarda, shu jumladan, qishloq ho'jalik hayvonlari, laboratoriya va yirtqich hayvonlarda uchraydi. Ularning shakli va to'zilishi hamda joylashish joyi har xil bo'lishiga qaramasdan o'sish qonuniyatlari, organizmga ko'rsatadigan ta'siri va klinik ifodasida ba'zi bir xilliklar ham bo'ladi. Odam va hayvonlarda uchraydigan o'smalar boshqa kasalliklardan farqli o'laroq yagona prinsipial guruh bo'lib, umumbiologik ahamiyatga ega bo'lib xisoblanadi.

Hayvonlar organizmida ayniqsa itlarda saraton o'smalarining eksperimental sharoitlarda chaqirilib, ularning hosil bo'lish sabablarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu esa odam

va hayvonlarda umuman tirik organizmda ayrim o'smalar jarayonlarining kechish qonuniyatlari, klinik ifodasi, kechishi hamda davolash va oldini olish muammolarini hal etish imkonini beradi. Shuning uchun itlar va boshqa hayvonlar o'smalarini o'zoq muddat klinik ko'zatish hamda organizmga ta'sirini o'rganish organizmdagi blastomoz o'sishning ayrim qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalarni kelib chiqishi qonuniyatlarini hayvonlar o'smalarini kelib chiqish qonuniyatlaridan alohida o'rganish mumkin emas. Hayvonlardan olingan natijalar odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalar bilan kurashish poydevori bo'lib xisoblanadi. Shuni aytish lozimki, veterinariyada hayvonlarning saraton o'smalarini o'rganish tibbiyotdagi kabi keng rivojlanadi.

O'smalar asosan hayvonlar xayotining ikkinchi yarmida paydo bo'ladi va barcha turdagi hayvonlarda, shuningdek o'simliklarda ham uchraydi. Hayvonlar orasida o'smalarining tarqalishini yosh bilan bog'liqligini itlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Yeaus1 (1991), P.F.Terexov (1989) ma'lumotlariga ko'ra veterinariya klinikasida qabo'l qilingan 2500 ta itlar orasida o'smalarni hayvon yoshiga qarab tarqalishini o'rganib, shunday xulosaga kelganki, o'smalari bo'lmagan itlarning o'rtacha yoshi 3,5 yilni tashkil qiladi, o'sma bilan kasallanganlari 8 yoshni tashkil qiladi. O'smalar bilan kasallanish olti yoshga borib keskin ko'payadi va shu darajada 10-13 yoshgacha davom etadi. Shunday qilib, o'smalar bilan kasallangan itlarning 50% ini 6-10 yoshliklari, 25%ni 5 yoshgacha bo'lgan itlar, qolgan 25% i 10 yoshdan kattalari tashkil qiladi. O'sma bilan kasallangan itlar 1-5 yoshlar orasidagi itlar guruhiga kiradi, 27% bir yoshgacha 5% i 10 yoshdan kattasini tashqil qiladi.

Yu.M.Vasilyev (1997) ta'kidlashiga ko'ra o'sma bilan kasallangan itlarni o'rtacha yoshi 3,8 yoshni tashqil qiladi.

N.Grish (1992) ma'lumotlariga ko'ra itlarda osteosarkoma bilan kasallanish o'rtacha yoshi 7,3 yosh, xondrosarkoma bilan kasallanish esa 5,4

yoshni tashkil qiladi. Shuning uchun sut bezi o'smalari bilan kasallangan hayvonlarni o'rganish odam va hayvonlarda uchraydigan blastomoz jarayonlar negizini o'rganishga hamda davolash uchun yangi samarali dorilarni qo'llashga yordam beradi.

Blastomoz jarayoni asosida organizm hujayralarining o'zgarishi yotadi. Normal hujayralarning o'sma hujayralariga aylanish mexanizmi, rak muammosini hal qilishda asosiy omil xisoblanadi. Kanserojen transformasiya yo'li orqali normal hujayra o'sma hujayralariga aylanib o'ziga xos biologik xususiyatlarga ega bo'ladi, ayniqsa o'smani chegarasiz ko'payishi, rivojlanishi va o'sish uchun ular o'sma kurtagini hosil qiladi. Yetuklik bosqichiga yetmasdan rak hujayralari umumbiologik determinasiya qonuniyatiga buysunmasdan to'xtovsiz ko'payadi, shuning uchun o'smalarning o'sishida o'ziga xos avtonom kechishi ko'zatiladi. Hayvonlarda har xil organ va to'qimalarda o'smalar hosil bo'lishi juda ko'p uchraydi.

Yu.M. Vasilyev (1997) aytishi bo'yicha «Yomon sifatli o'smalar bu oddiy kasallik emas bu patologik jarayonlar guruhidir».

G.I. Abelevning (1997) ko'rsatishi bo'yicha o'smalar barcha hayvonlarda uchrashi mumkin, bu holat uni boshqa kasalliklardan farqlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'smalar umumbiologik muammo bo'lib xisoblanadi. Ilgari barcha yaxshi va yomon sifatli o'smalar yagona termin «rak» deb nomlangan, rak bu biologik hodisa, uni tushunish uchun barcha zamonaviy biologik fanlar qonunlariga tayanish lozim.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning qisqacha tavsifi

Tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida hayvonlarni umumiy va maxsus tekshirish usullaridan foydalanildi: anamnez ma'lumotlarini yig'ish, ko'rikdan o'tkazish, paypaslash, auskultasiya, termometriya, o'lchash, topografoanatomik tekshirish, qondagi morfologik ko'rsatkichlarni aniqlash, rasmga olish hamda hujjatlashtirish.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati

Itlar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri o'sma kasalligi bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu muammoni etiologiyasini va tarqalish darajasini aniqlash, davolash va oldini olish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq. Magistrlik dissertasiyasi tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati o'smalarni davolashda kompleks usullarni qo'llash hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sut bezi o'smalarini davolash va oldini olishda ovarioektomiya operatsiyasini qo'llash hisoblanadi.

Ish tuzilmasining qisqacha tavsifi

Dissertasiya ishi 60 betlarda kompyuter yozuvida berilgan va uning tarkibiga 3 ta bobdan iborat. Unga kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqotlar obekti va uslublari, tajribalarning natijalari, tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar, xulosa, amaliy tavsiya, 2 ta jadval va 86 ta adabiyotlardan tashkil topgan va adabiyotlar ro'yxatidan iborat xususiy tadqiqotlar kiradi.

I bob. Adabiyotlar sharhi

1.1. O'smalarning etiologiyasi va patogenezi

It – hayvonlar orasida odam uchun eng sodiq jonivor hisoblanadi. J.Kyuvening ta'kidlashicha itlar insoniyat uchun eng noyob, foydali va o'ta mukammal topilmalardan biridir. Inson itlarning o'ta zehnliligi, hidlarni o'tkir sezishi, yaxshi ko'rishi, eshitishi, tez chopishi va chidamliligini oldindan sezib, ularni boshqa hayvonlarga nisbatan o'ziga yaqinlashtirgan.

Hozirgi kunda inson va hayvonlarning bir turdagi kasalliklarini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishning oritishi natijasida veterinariya onkologiyasida ham bir qator muxim masalalar o'z yechimini topa boshladi. Uzoq yillar davomida ushbu muammolarga yetarlicha e'tibor berilmay kelingan. Lekin hozirga kelib veterinariya soxasining rivojlanishi ayniqsa mayda hayvonlar patologiyasini o'rganishning chuqurlashashi natijasida itlar orasida tarqalgan onkopatologiya muammosi juda ko'p uchrashi hamda hal qilish yo'llarining murakkabligi jixatidan muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda itlar orasida o'smalarning tarqalish darajasi insonlarda uchrash darajasidan ham yuqori bo'lib xisoblanadi.

O'smalar muammosi nafaqat biologik, balki tibbiyot-veterinariya aspektida ham katta e'tiborga molik muammo bo'lib xisoblanadi. Chunki o'smalarni kelib chiqish sabablari hozirgi paytgacha to'liq aniqlanmagan va uni rivojlanish jarayonida organizmning qaysi tizimlariga qanday ta'sir qilishi onkologiya fani oldida turgan muxim vazifadir. O'smalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, nafaqat odamlarda, balki hayvonot olamining barcha turlarida, shu jumladan uy hayvonlarda ham keng uchrab turadi. O'smalar shakli va tuzilishi bo'yicha har xil, ammo kelib chiqishi va rivojlanishi, klinik ifodalanishi hamda organizmga ta'sir etishi bo'yicha yagona guruhni tashkil qiladi va shu bilan umumbiologik ahamiyat kasb etadi (J.Dobrev,1989; P.F.Terexov,1989; I.Grish, 1992).

It organizmining patologiyasida o'smalar nazariy va amaliy veterinariyaning murakkab muammosidir. Shulardan kelib chiqqan holda o'sma

kasalligi bilan kurashish veterinariya mutaxassislari oldida dolzarb vazifa bo'lib turibdi. O'smalarning hayvon organizmiga umumiy ta'siri o'smaning joylashgan joyiga va uning yomon yoki yaxshi sifatli bo'lishiga ham bog'liqdir. Agar o'sma hayotiy muxim organlar atrofida yoki shu organning o'zida o'sgan bo'lsa, uning hayvon organizmiga ta'siri yana ham xavfli bo'lishi mumkin. Shuningdek o'smalarning o'sish tezligining yuqori darajada bo'lishi ham muxim ahamiyat kasb etadi.

O'smalarning patogenezi ham murakkab bo'lib, masalan, saraton patogenezi gipotezalaridan biri - Onkooksillarning hujayra membranasi va ichki kombinentlari o'zaro bog'lab, birgalikda harakat qilib ko'payayotgan hujayralarning differensiyalanishini to'xtatadi, reseptorlarni modifikasiya qilib (o'zgartirib) hujayralarning to'g'rilovchi (boshqaruvchi) ta'sirlarga sezuvchanligini yo'kotadi, yuza antigenlar spektrini o'zgartiradi va oqibatda normal hujayra mutant hujayraga aylanib qoladi.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra o'smalarning rivojlanishini 3-4 bosqichlariga kelib, u hosil bo'lgan to'qimaning markazidan boshlab parchalanish jarayoni boshlanadi. Buning natijasida u yerda zaxarli moddalar to'plana boshlaydi va organizmga so'rilib barcha organ va tizimlarni faoliyatiga ta'sir qiladi, shu jumladan nospesifik himoya va immunologik tizimga ham yetarli darajada salbiy ta'sirin ko'rsatadi. Bu yesa organizmni himoya qobiliyatini susaytirib o'sma hujayralarini tarqalishiga olib keladi. Bundan tashqari o'smalarning turlariga qarab itlar organizmga ayniqsa ularning immun tizimiga ta'siri turlicha bo'lib, bunineg natijasida itning sog'ligida turli darajada o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun itlarning o'smalari immun tizimiga ta'sirini o'rganishni, immunologik ko'rsatkichlarni o'zgarishini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Hozirgi paytda nospesifik rezistent reaksiyalarga aloxida ahamiyat berilyapti, chunki bu sistema immunologik yot hujayralarni (shu jumladan mutant va o'sma hujayralarni) tanib, ularni yuq qilishda muhim o'rin tutadi. Bunday himoyada asosan faollashgan makrofaglar, tabiiy killerlar, neyrofillar va gumoral omillar (tabiiy

antitanalar, interferonlar, interleykinlar) qatnashadilar. O'ziga xos immunologik himoya T va V limfositlar faolligi natijasida amalga oshadi.

1.2. O'smalar biologiyasi

O'smalar muammosi biologik fanlar qatorida hamda tibbiyot va veterinariya xodimlari nuqtai nazarida katta qiziqish uyg'otib kelgan dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal qilish maqsadida ko'pgina soxa mutaxasislari ilmiy izlanishlar olib borib fan uchun kerakli bo'ladigan samarali yutuqlarga erishib, soxa rivojiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda xayvonlar organizmida kechadigan barcha turdagi patologiyalar orasida yomon sifatli o'smalar patologiyasi tibbiyot va veterinariya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim va dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Hayvonlar organizmida kechadigan o'smalar patologiyasini odamlarda kechadigan o'smalar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli o'smalar muammosi veterinariyada ham yetarlicha dolzarb muammo xisoblanadi. Qishloq ho'jaligi hayvonlarining o'sma bilan kasallanishi natijasida xo'jaliklarga katta iqtisodiy yetkaziladi, chunki bu kasallik bilan so'yilgan hayvonlarning go'shtidan zararlangan joylar olib tashlanadi, bundan tashqari hayvon va parrandalarning bosh sonini ko'paytirishga to'skinlik qilib maxsuldorligini kamaytiradi va ba'zi xolatlarda hayvon o'limiga olib keladi.

Hayvonlar organizmida sodir bo'ladigan blastomotoz jarayonlarni o'rganish muhim vazifa bo'lib, ayniqsa taqqoslash patologiya aspektida katta ahamiyatga ega. O'smalar tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, odamlar hamda barcha turdagi hayvonlarda, shu jumladan, qishloq ho'jalik hayvonlari, laboratoriya va yirtqich hayvonlarda uchraydi. Ularning shakli va to'zilishi hamda joylashish joyi har xil bo'lishiga qaramasdan o'sish qonuniyatlari, organizmga ko'rsatadigan ta'siri va klinik ifodasida ba'zi bir xilliklar ham bo'ladi. Odam va hayvonlarda uchraydigan o'smalar boshqa kasalliklardan farqli o'laroq yagona prinsiplial guruh bo'lib, umumbiologik ahamiyatga ega bo'lib xisoblanadi.

Hayvonlar organizmida ayniqsa itlarda saraton o'smalarining eksperimental sharoitlarda chaqirilib, ularning hosil bo'lish sabablarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu esa odam va hayvonlarda umuman tirik organizmda ayrim o'smalar jarayonlarining kechish qonuniyatlari, klinik ifodasi, kechishi hamda davolash va oldini olish muammolarini hal etish imkonini beradi. Shuning uchun itlar va boshqa hayvonlar o'smalarini o'zoq muddat klinik ko'zatish hamda organizmga ta'sirini o'rganish organizmdagi blastomoz o'sishning ayrim qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalarni kelib chiqishi qonuniyatlarini hayvonlar o'smalarini kelib chiqish qonuniyatlaridan alohida o'rganish mumkin emas. Hayvonlardan olingan natijalar odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalar bilan kurashish poydevori bo'lib xisoblanadi. Shuni aytish lozimki, veterinariyada hayvonlarning saraton o'smalarini o'rganish tibbiyotdagi kabi keng rivojlanadi.

O'smalar asosan hayvonlar xayotining ikkinchi yarmida paydo bo'ladi va barcha turdagi hayvonlarda, shuningdek o'simliklarda ham uchraydi. Hayvonlar orasida o'smalarining tarqalishini yosh bilan bog'liqligini itlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Yeaus1 (1991), P.F.Terexov (1989) ma'lumotlariga ko'ra veterinariya klinikasida qabo'l qilingan 2500 ta itlar orasida o'smalarni hayvon yoshiga qarab tarqalishini o'rganib, shunday xulosaga kelganki, o'smalari bo'lmagan itlarning o'rtacha yoshi 3,5 yilni tashkil qiladi, o'sma bilan kasallanganlari 8 yoshni tashkil qiladi. O'smalar bilan kasallanish olti yoshga borib keskin ko'payadi va shu darajada 10-13 yoshgacha davom etadi. Shunday qilib, o'smalar bilan kasallangan itlarning 50% ini 6-10 yoshliklari, 25%ni 5 yoshgacha bo'lgan itlar, qolgan 25% i 10 yoshdan kattalari tashkil qiladi. O'sma bilan kasallangan itlar 1-5 yoshlar orasidagi itlar guruhiga kiradi, 27% bir yoshgacha 5% i 10 yoshdan kattasini tashqil qiladi.

Yu.M. Vasilyev (1997) ta'kidlashiga ko'ra o'sma bilan kasallangan itlarni o'rtacha yoshi 3,8 yoshni tashqil qiladi.

N.Grish (1992) ma'lumotlariga ko'ra itlarda osteosarkoma bilan kasallanish o'rtacha yoshi 7,3 yosh, xondrosarkoma bilan kasallanish esa 5,4 yoshni tashkil qiladi. Shuning uchun sut bezi o'smalari bilan kasallangan hayvonlarni o'rganish odam va hayvonlarda uchraydigan blastomoz jarayonlar negizini o'rganishga hamda davolash uchun yangi samarali dorilarni qo'llashga yordam beradi.

Blastomoz jarayoni asosida organizm hujayralarining o'zgarishi yotadi. Normal hujayralarning o'sma hujayralariga aylanish mexanizmi, rak muammosini hal qilishda asosiy omil xisoblanadi. Kanserojen transformasiya yo'li orqali normal hujayra o'sma hujayralariga aylanib o'ziga xos biologik xususiyatlarga ega bo'ladi, ayniqsa o'smani chegarasiz ko'payishi, rivojlanishi va o'sish uchun ular o'sma kurtagini hosil qiladi. Yetuklik bosqichiga yetmasdan rak hujayralari umumbiologik determinasiya qonuniyatiga buysunmasdan to'xtovsiz ko'payadi, shuning uchun o'smalarning o'sishida o'ziga xos avtonom kechishi ko'zatiladi. Hayvonlarda har xil organ va to'qimalarda o'smalar hosil bo'lishi juda ko'p uchraydi.

Yu.M. Vasilyev (1997) aytishi bo'yicha «Yomon sifatli o'smalar bu oddiy kasallik emas bu patologik jarayonlar guruhidir».

G.I. Abelevning (1997) ko'rsatishi bo'yicha o'smalar barcha hayvonlarda uchrashi mumkin, bu holat uni boshqa kasalliklardan farqlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'smalar umumbiologik muammo bo'lib xisoblanadi. Ilgari barcha yaxshi va yomon sifatli o'smalar yagona termin «rak» deb nomlangan, rak bu - biologik hodisa, uni tushunish uchun barcha zamonaviy biologik fanlar qonunlariga tayanish lozim.

Soxa mualliflarining fikricha rak keng ma'noda o'ziga xos to'qimalarni o'sishi bilan bog'liq guruh kasalligi bo'lib xisoblanadi va quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Notipik to'qimalarni keltirib chiqarishi va ular ko'prok yomon

sifatli o'zgarmaydigan jihatga ega.

2. Organizm va to'qimalarda proliferasiya yo'li bilan to'xtovsiz o'sishi.

Z. Ayrim darajadagi differensirovka, ya'ni ayrim normal morfologik va fiziologik xususiyatlarini yo'qotilishi.

4. Qisman yoki to'laligicha tashkillashishini yuqolishi.

5. Atrofdagi to'qimalarga o'sib kirishi va ularni parchalash.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan oxirgi 2 tasi yomon sifatli o'smalarga xosdir.

1.3. Hayvonlar orasida o'smalarning tarqalishi

Onkologiyada o'smalarning hayvonlar orasida tarqalishini aniqlash uchun 10 ming yoki 100 ming bosh hayvonlarni tekshirish maqsadga muvofiq va faqat shu orqaligini hayvonlar orasida o'smalarning qay darajada tarqalganligini bilish mumkin.

Samarqand qishloq xo'jalik instituti Veterinariya fakulteti "Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarroxlik va farmokologiya" kafedrasida qoshidagi xirurgik klinikasida o'tgan 5 yil davomida 553 it tekshirilib ular orasidan 3 tasida (0,54%) yomon sifatli o'smalar aniqlangan. Shuningdek 10 yil davomida 841 it gavdasi patologoantomik yorib ko'rilganda ularning 5% turli xildagi o'smalar oqibatida o'lganligi ma'lum bo'ldi. O'smalar hayvonlarda uchraydigan barcha kasalliklarning 1% ni tashkil qiladi, ya'ni har 100 ming kasal hayvonlardan 200 tasi o'sma bilan kasallangan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 13186664 bosh shoxli hayvonlar orasida 8268 tasida o'sma aniqlangan, yana 32,374 % hayvon o'smalari «xungo» guruxiga kiritilgan. Agar ularning yarmi o'sma bo'lsa, bu 0,185 % ni tashqil qiladi.

K. Lyeiyepyeg ma'lumotlariga ko'ra AQSh da asosan maxsuldor hayvonlar orasida limfa tizimi va ko'z raki ko'p tarqalgan. Go'shtning sifati pasayishi oqibatida 1961 yili AQShda iktisodiy zarar 2,2 mln dollarni tashqil qiladi.

G. Miior (1990); Yu. Dobrov, R. Petrov (1989); G.I.Abelev, (1997) larning ta'qidlashlaricha Niderlandiyada o'smalarning tarqalishi quyidagicha: har bir 100 ming bosh yirik shoxli hayvonlar va otlar orasidan 60 ta yirik shoxli qoramollar va otlardan 110 tasi o'sma bilan kasallangan. bu ko'rsatkich AQSh da 207 bosh qoramol va 50,6 bosh otni tashkil qiladi.

I.F. Rozgin 19 ming itni tekshirish natijasida har 10 ming itdan 23 tasi o'sma bilan kasallanganligi aniqlangan.

S.A. Garikov (1991) 2092 hayvonni tekshirish natijasida quyidagi ma'lumotlarni olgan: o'smalar bilan kasallanish itlarda - 30,3 %, yirik shoxli hayvonlarda - 10,6 %, otlarda - 6,3 %, qo'ylarda - 1,6 % va cho'chkada - 0,1 % ni tashkil qiladi.

I.Ye Laptev (1990) ma'lumotlariga ko'ra 1954 dan to 1971 yilgacha o'tkazilgan gistologik tekshirishlar asosida o'smalar quyidagicha tarqalganligi aniqlangan: itlarda - 22,6% (338 tada), otlarda - 9% (205tada) va cho'chkada - 0,12% (1901 tada).

1.4. Hayvonlar uchraydigan o'smalarning klinik diagnostikasi

Kasallikni o'z vaqtida samarali davolash tibbiyotning muhim vazifalaridan biridir. Bu onkologiyada ham muhim ahamiyatga ega, chunki xavfli o'smalarni davolash natijalari kasallikni o'z vaqtida turi aniqlashga bog'lik. Hayvonlarda yomon sifatli o'smalarni aniqlash juda murakkab vazifa bo'lib xisoblanadi. Ayniqsa o'smalar ichki organlarda bo'lgan paytlarda ularning diagnostikasi juda murakkab. Chunki o'smalarning rivojlanishi davrida og'riq sezilmaydi va ularning klinik belgilari namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun kasal hayvonni birlamchi tekshirish paytida ularda o'sma paydo bo'lganligini aniqlab bo'lmaydi. Faqatgina suyak o'smalarining boshlang'ich bosqichlarida hayvonlar oyoqlari harakat funksiyasi bo'ziladi va ularda oqsash paydo bo'ladi. Agar o'smalar terida, oyoqlarda, yelinda, jinsiy organlarda, bosh, tanada bo'lsa diagnoz qo'yish oson kechadi, faqatgina o'z vaqtda davolashni olib borish maqsadga muvofiq. Ayrim paytlarda hayvon egalari loqaydlik va ishonchsizlikka yo'l qo'yib, o'smalarni davolash qiyin kechishi va ko'pincha

yaxshi natija bermasligini baxona qilib, veterinariya vrachlariga kech murojat qiladilar.

Tibbiyot va veterinariya, jumladan onkologik muassasalarning amaliy ishlariga so'nggi yillar ichida sekin-asta yangi diagnostika texnikalar va tekshiruv usullari tadbif etilmokda, ular orqali xavfli o'smalarni o'z vaqtida anikdash darajasi kengayadi.

O'smalarga diagnoz qo'yish juda murakkab va shu bilan birga muhim vazifa bo'lib albatta rejali ravishda olib borilishi kerak. Dastlab hayvon egasidan anmnez ma'lumotlari so'rab olinadi va taxlil qilinadi. Bunda o'smaning paydo bo'lgan vaqtini, o'sish darajasi va tezligini aniqlanadi. Yomon sifatli o'smalarni tekshirish vaqtida asosan uning organizmda qaysi to'qimasidan o'sib kelganligini, o'smaning xarakterini, uning tarqalishini aniqlash lozim. Ayrim o'smalarning yelin, siydik-jinsiy organlarida o'sishi bir maromda emas, u bir kuchayib keyin regressiyaga ham uchrashi mumkin. Bu ko'pincha jinsiy sikllarga bog'liq, ya'ni organizmda ayrim gormonlarning miqdori oshib ketishi natijasida tezlashishi mumkin. Hayvon egasidan ma'lumot olganda hayvonning burnidan, qulog'idan, qindan, prepusiya xaltasidan, orka chiqaruv teshigidan oqadigan patologik suyuqliqlar chiqishini aniqlash uchun mayda hayvonlarda (it, mushuk) kuyga kelish, uning paydo bo'lish vaqtini e'tiborga olish kerak. Qabo'l qilish paytida hayvonning semiz - oriqligi ham e'tiborga olinadi, chunki o'smalarda hayvonlarda rak kaxeksiyasi rivojlanadi.

Bunlardan tashqari o'smani o'sishiga ham katta e'tibor berish lozim, yomon sifatli o'smalar progressiv kattalashib ketishi mumkin. Agarda o'sma tez o'sib, keyin o'sishi sekinlashib qolsa, o'smada malignizasiya jarayoni kechishini bildiradi.

Shuni qayd etish lozimki, kasallik simptomlari boshqa ko'pgina o'sma bo'lmagan kasalliklarda ham uchrashi mumkin. Shuning uchun o'sma diagnozini qo'yishda bir qator, maxsus tekshiruv usullarini qo'llash kerak. Rentgenologiya usuli eng qadimgi usul bo'lib, o'smani aniqlashda doimo qo'llaniladi. Radionuklid usul teri, limfa tugunlari, o'pka, suyak va buyrakni

tekshirishda qulay. Fibroendoskopik asboblarni amaliy onkologiyaga jadal kirib kelib, barcha bo'shliqli a'zolaridagi o'smalarni tekshirishda katta yordam bermokda. Parenximatoz a'zo o'smalarining zamonaviy diagnostikasini ultratovush (sonografiya) usulisiz tasavvur etish qiyin. So'nggi paytlarda onkologiyada o'sma markerlarini aniqlash, kompyuter va magnit-: rezonans tomografiyalarni tashxis qo'yish uchun qo'llash miqyosi tezlik bilan kengaymoqda.

O'sma kasalliklariga diagnoz qo'yish vaqtida quyidagi tekshirish usullaridan foydalanish mumkin

1. Ko'rikdan o'tkazish usuli: bu usul bilan quyidagilarni aniqlash mumkin: hayvonning umumiy holati, o'smaning joylashgan joyi, shakli, kattakichikligi, soni, shilliq pardalar holati, rangi.

2. Paypaslash usuli: o'sma atrofidagi to'qimalardagi mahalliy harorat, og'riq, o'sma qatlamda hosil bo'lgan to'qimalarning holati, fluktuasiya va krepatasiya tovushlari, limfa tugunlarining holati, metastazlarning bor-yo'qligi.

3. Punksiya (igna sanchish) usuli – asosan differensial diagnostika uchun qo'llaniladi. Chunki o'smalarni gematoma, limfaekstravazat, dabbadan farqlash kerak. Gematomada qon chiqadi, limfoekstravazatda sariq rangdagi suyuqlik xalta, teshik va unga tushgan organlar bo'ladi.

4. Gistologik usul – operatsiya o'tkazish jarayonida olib tashlangan o'sma patogistologik laboratoriyaga yuboriladi. U yerda gistologik analiz o'tkazib, o'smaning turi aniqlanadi va qo'yilgan diagnoz aniqlanadi.

5. Auskultasiya va perkussiya usullari: agarda hayvonda nafas olish o'zgarsa bu usullar yordamida quyidagilar aniqlanadi: tovushlarning o'zgarish chegaralari, vezikulyar nafas olishning kuchayishi.

6. Qondagi morfologik va immunologik ko'rsatkichlarini tekshirish.

7. Rentgenografiya usulida tekshirish ham yaxshi natija beradi, unda yumshoq va qattiq to'qimalardagi o'smalarni aniqlash mumkin.

8. Rektoskop yordamida to'g'ri ichak o'smalarini aniqlash..

Ko'zdan kechirish usuli yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin:

O'smalarni aniqlashda rentgenografiya usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, ko'krak bo'shlig'idagi organlarni tekshirishda, bunda o'smaning joylashish joyini, uning shaklini, katta - kichikligini atrofidagi to'qimalariga ta'sirini aniqlash mumkin.

Bulardan tashqari tibbiyot va veterinariya amaliyotida o'smalarga diagnoz qo'yishning spesifik usullari ham mavjud bo'lib, ularga gistologik tekshirishlar, biopsiya usuli va punksiya qilish kabi usullar kirib bu usullar o'smalarni dastlabki bosqichlardan o'q aniqlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda olingan o'sma hujayrasining turi hamda yaxshi yoki yomon sifatli ekanligi ham tashxis qilinadi.

XXI asrga kelib veterinariya onkologiyasining rivojlanishi yangi pog'onaga chiqdi. Bu asrga kelib olimlar tomonidan o'smalarning etiologiyasi, diagnostikasi, davolash hamda oldini olish borasida ko'pgina muhim ahamiyatli natijalarga erishildi. Onkologiya amaliyotida o'sma kasalliklarida diagnozni tasdiqlash maqsadida diagnostik operatsiyalar o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda o'sma turini aniqlashdan tashqari uni jarroxlik yo'li bilan olib tashlashni amalga oshirish mumkin. Ayrim xollarda diagnostik operatsiyalar, davolash operatsiyalariga aylanib ketadi. O'smalarni to'liq aniqlash uchun gistologik tekshirishlar bajarish lozim. Bu eng oxirgi va aniq diagnoz qo'yish usuli bo'lib xisoblanadi. Oxirgi paytda olimlar tomonidan taklif etilgan immunologik usuldan foydalanish ham o'smalarga to'liq va ishonchli diagnoz qo'yishda samarali natijalar bermoqda.

N.Ye.Osipov va boshqalar (1996) bo'yicha o'smalar diagnostikasida serologik diagnostika usulini qo'llash yaxshi natija berishi katta e'tiborga sazovordir. Yomon sifatli o'smalarni aniqlashda periferik qonni gematologik tekshirilganda yordamchi usul sifatida qo'llanishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki o'smalarni aniqlashda har xil klinik tekshirish usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi va ularni ishonchli diagnostika qilishga yordam beradi.

1.5. Hayvonlarda o'smalarni oldini olish va davolash bo'yicha umumiy takliflar

Qadimgi vaqtlardan beri insonlar saraton kasligini davolash usullarini izlab kelganlar. Turli xildagi o'simliklar va hayvon tabiatli moddalar, oddiy minerallar va qimmatbaho toshlar, qizigan temir va o'tkir pichoq kabilar qo'llanib kurilgan, biroq xanuzgacha xavfli o'smalarning barcha turidan to'la xalos bo'lish muammosi xanuzgacha yechilmay qolyapti. Oxirgi o'n yilliklar mobaynida onkologiya soxasida ko'pgina yutuqlarga erishilganligiga qaramay, onkologiya bemorlarning faqatgina 50% ini saklab qolish mumkin bo'lyapti. Buning asosiy sabablari birinchidan, o'sma jarayonining biologik xususiyatlari (birlamchi o'chokda o'sma hujayralarining to'xtovsiz o'sishi, millionlab limfa va kon aylanish sistemasi bo'ylab barcha a'zolarga tezda tarqalishi va xar bir o'sma hujayrasining avtonom xayot kechirishi, shuningdek yangi o'sma tugunini hosil kilishi) bo'lsa, ikkinchidan o'smaning yashirin davrida, ya'ni undagi hujayralar miqdori xali 1 mlrd (1g) dan kam bo'lganida aniqlovchi ishonchli vositalarning yetarli emasligidir. Shu sababli onkolog-shifokorning klinika amaliyotida, mahalliy tarqalgan yoki umumiy tarkalgan kasallik bilan ish olib borishiga to'g'ri keladi. Saraton kasalligini davolash tarixini taxdil qilish shuni ko'rsatadiki, avvalo hamma yerda o'smaga qarshi kuhash maxalliy ta'sir etadigan usullardan boshlangan, keyinchalik unga umumiy ta'sir etish yo'llari topilgan. Aniq davolash usullari ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

<i>Maxalliy ta'sir</i>	<i>Umumiy ta'sir</i>
1. Xirurgik davolash	1. Kimyoterapiya
2. Kriodestruksiya	2. Gormonal terapiya
3. Nur terapiyasi	3. Immun terapiya
4. Mahalliy gipertermiya	4. Umumiy gipertermiya

O'sma kasalligi bilan kurashish murakkab va qiyin jarayondir. Yuqorida ta'kidlanganidek ularni keltirib chiqaruvchi sabablarning turli tumanligi eng asosiy omil bo'lib xisoblanadi. Bunda o'smalarni daslabki bosqichlardan oq aniqlash, tekshirish va kerak bo'lsa davolash tadbirlari kiradi. Xizmat itlari saqlanadigan pitomniklar sharoitida o'smalarga qarshi kurashishning asosi itlarni despanserizasiya ko'rigidan o'tkazish bo'lib, unda o'sma bilan kasallangan itlar mavjudligini aniqlashga, ularning aniq va erta diagnostikasiga, blastomoz jarayonining metastazlashganligi, hayvonning umumiy xolati va kasal hayvonlarni davolashda uning xo'jalik uchun qimmatligi aniqlanadi.

Hozirgi paytgacha o'smalarni polietologik kelib chiqishi to'g'risida to'liq bilimga ega bo'lmaslikda uning rivojlanish mexanizmi murakkabligi va erta aniqlash qiyinligi yotadi. Hozirgi zamonaviy klinik tekshirishlar va hayvonlarda o'tkazilgan tajribalardan foydalanish rak tabiatini aniqlashga yordam beradi.

O'smalarni davolashning zamonaviy tamoyillari har xil: ular jarroxlik usullari, nurlantirish va dori vositalar ko'llashga asoslangan. Oxirgi yillarda klinik immunoterapiya usuli ishlab chiqilgan bo'lib onkologiya amaliyotida keng qo'llanilmoqda. O'smalarning kelib chiqishi va rivojnishi organizm holati va tashqi hamda ichki omillarning ta'sir qilishi bilan bog'liq.

O'smalar patogenezini tushunish omili patologik o'choqqa mahalliy ta'sir qilishni inkor etmaydi. Aksincha, barcha davolash usullarini o'smaga qarshi yo'naltirish lozim, chunki agarda o'smani davolashni iloji bo'lmasa u progressiv kattalashib hayvon o'limiga olib keladi. O'smani boshlang'ich davrida aniqlash va uni to'lig'icha jarroxlik yo'li bilan olib tashlash hayvon sog'ligini tiklash imkonini beradi. Bundan o'smalarni davolash terapiyasining asosiy qonuni kelib chikadi. O'sma kasalliklarini davolash uning barcha elementlarini yo'qotish bilan bog'lik. Bundan tashqari o'sma kasalliklarini davolashning muvaffaqiyati ularni radikal usul bilan olib tashlash bilan bir qatorda o'z navbatida organizmni himoya funksiyalarini oshirishga qaratilgan yordamchi terapevtik davolash muolajalarini ham qo'llash xisoblanadi.

Veterinariya amaliyotida o'smalarni jarroxlik usuli bilan davolash eng asosiy davolash usullaridan bo'lib xisoblanadi. Lekin jarroxlik usulini qo'llash natijasida olinadigan natijalar hamma vaqt ham yuqori samara bermaydi. Nurlantirish terapiyani qo'llash ham veterinariyada keng tarqalgan. Bunda o'sma nur ta'sirida yo'q qilinadi. Rentgenoterapiyani ko'llash amaliy ahamiyatga ega emas, chunki uni o'tkazish texnik jihatdan nafaqat katta balki mayda hayvonlarda ham ancha murakkab bajariladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, itlardagi jinsiy organlarining alveolar (transmissiv) sarkomasi rentgen nurlariga ancha sezuvchan va ularning natijasida o'sma tez regressiyaga uchraydi.

Jarroxlik usulida davolashning u yoki bu turi va xajmi o'sma jarayonining bosqichiga, o'sish shakliga, a'zoda joylashishiga, gistostrukturasiga, uning differensiyalanish darajasiga, shuningdek hayvonning umumiy axvoliga bog'liq. O'sma jarayonining bosqichi jarroxlik operatsiyasining turi va xajmini tanlash yoki operatsiyadan bosh tortishning asosiy mezonidir.

O'sma kriodestruksiyasi. Kriodestruksiya (grekcha) — «krios» — sovuq, «destruksiya» — buzilish ma'nosini bildiradi. So'nggi yillarda onkologiya muassasalari amaliyotida kriodestruksiya usuli qo'llanib kelinmokda — bu o'smaning tug'ridan-tug'ri joylashgan yeriga —196 °S suyuk azot sachratish yoki applikasiya qilish yuli bilan muzlatilib, keyinchalik erigani sayin joydagi o'sma hujayralarining ommaviy o'lishiga olib keladigan usul. Bu usuldan asosan unchalik katta bo'lmagan tashkarida joylashgan o'smalarni davolashda keng foydalaniladi (teri, ko'rinarli shilliq qavatlar).

Nur terapiyasi. Nur terapiya jarroxlik operatsiyasi kabi o'smaga mahalliy ta'sir etish usuli bo'lib xisoblanadi. Nur terapiyasi ionlovchi radiasiya yordamidagi asosiy davolash usullaridan biri bo'lib, o'rtacha 70% onkologik bemorlarda ko'llaniladi. Ionlovchi nurning o'smaga terapevtik ta'siri quyidagicha:

1. Radiasiya o'sma hujayralarining biologik o'limiga sabab bo'ladi.
2. Normal va o'sma to'qimalarining turli radio (nur) sezgirligini oshiradi.

Xavfli o'smalar kimyoterapiyasi. Bu onkologiyada eng muhim davolash usullaridan biri bo'lib, xavfli o'smalarga qarshi turli kimyoviy moddalarni ishlatishga asoslangan. Zamonaviy kimyoterapiyaning tarixi 1946 yildan boshlanadi. Bunda birinchi bor kuchli zaxarlovchi modda — azot ipriti limfogranulematozni davolash uchun qo'llanilgan. Kadimdan insonlar saratonni turli xildagi moddalar bilan davolashga urinib ko'rganlar. Ular o'simlik, hayvon maxsulotlari, minerallar va xokazolar bo'lgan. Ularni tanlash empirik, ya'ni hech bir ilmiy asossiz bo'lgan. Davolash samarasini aniqlovchi o'smaga qarshi preparatni bemorga yuborish yullari va kimyoterapiyani boshqa davolash usullari bilan (jarroxlik operatsiyalari, nur terapiya) birgalikda o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Preparat yuborilishining sistemali, region va lokal (maxalliy) turlari farqlanadi.

Sistemali kimyoterapiya — bu o'smalarning disseminasiya (keng tarqalishi) paytida umumiy ta'sir ko'rsatish maqsadida dorilarni qon aylanish doirasiga barcha yullar bilan yuborilishidir.

Lokal kimyoterapiya — bu kimyoviy preparatni malham yoki suyuklio' kurinishida to'g'ridan-to'g'ri o'smaga surtish, (uni bo'shliqlarga yuborish (plevruga, qorin bo'shlig'iga, 1-pufak ichiga va xokazo) yoki turi o'sma ichiga (intramural) yuborish demakdir.

Xavfli o'smalar gormonal terapiyasi. O'smalar gormonal terapiyasi (yoki endokrin terapiya) ning nazariy asosi gormonlarning hujayra bo'linishi va genlar faolligini boshqarishdan iborat. Aniqlanishicha, tuxumdon gormoni — estradiol sut bezi epiteliy hujayralarining bo'linishini, gipofiz gormoni — somatotropin (o'sish gormoni) esa mushak hamda tog'ay hujayralarining metabolizmi va o'sishini tezlashtiradi. Ko'pgina mamlakatlardagi ayrim klinik kuzatishlarning ko'rsatishicha, gormon terapiya metastazlar o'sishini to'xtatishi yoki sut bezi saratonining o'tib ketgan turida bemorlarning o'z qismida regressiya chakirishi mumkin. Yaxshi natijalar endometriy, tuxumdon, qalqonsimon bez va prostata bezi saratonlarida aniqlangan.

Hozirgi paytda gormonal (yoki endokrin) terapiya ko'pincha gormonlarga bog'liq bo'lgan o'smalarda, ya'ni normal sharoitda endogen gormonlar orqali nazorat qilinadigan to'qimalardan chiqqan o'smalarda (sut bezi, prostata bezi, endometriy saratoni) qo'llanilyapti. Gormonlar ta'siriga qalqonsimon bez, tuxumdonning xavfli o'smalari va juda kam darajada xiqildoq saratoni va melanoma sezgir xisoblanadi.

Gormonlarning o'smaga qarshi ta'sir mexanizmi xali oxirigacha o'rganilmagan, lekin so'nggi paytlarda sitoplazmatik reseptorlarning o'sma hujayralariga gormonal ta'siri aniqlangan. Estrogenoreseptorlar va protesteroreseptorlar yanada katta ahamiyatga ega. Masalan, shu reseptorlardan biriga ega bo'lgan 50—60% ga yaqin o'smalar gormonal terapiya paytida regressiyaga uchraydi, ega bo'lmaganlari esa — faqat 10% ni tashkil etadi. O'smada ham estrogenlar, ham progesteronlarga sezgirlik bo'lsa, remissiya mikdori 75% ga yetadi.

Xavfli o'smalar immun terapiyasi. Oxirgi yillarda xavfli o'smalarni davolashda immun terapiyaga katta ahamiyat berilmokda. Bu usul o'sma jarayoniga qarshi kurashda fiziologik immun sistemalarni qo'llashga asoslangan. Bunday yangi davolash usulining yutuqlari xali a'lo darajada emas. Chunki o'smaning organizm immun himoyasi bilan bog'liqligi hozircha yetarli o'rganilmagan. Shunga qaramay, klinik immun terapiyaning asosiy yunalishlari jadvalda keltirilganidek belgilangan. Immunoterapiya usulining tasnifi bemor organizmiga ta'sir etishning uziga xosligiga karab tashkil etilgan.

So'nggi yillarda onkologiya klinikasida biotexnologiya va gen-injeneriyasining intensiv rivojlanishi tufayli limfokinlar, monokinlar va monoklonal antitanachalar qo'llanilmokda.

Limfokinlar — antigenlar bilan aloqaga kirilganda «T» va «V»-limfositlar tomonidan ishlanib chiqadigan moddalar (makrofaglar migrasiyasini pasaytirish omili; T-supressorlarni faollovchi omil; hujayralarning o'sish omili — interleykin 2; gamma-interferon va xokazo. Limfokinlar immun himoyani

faollovchi vosita sifatida tavsiya qilingan, bu birgalikda qo'llanilganda yaxshi samara beradi.

Monokinlar — monosit va makrofaglar tomonidan ishlanib chiquvchi moddalar (sitotoksiklik, fagositoz, ximotaksis, komplement sintez va koloniyani rag'batlantiruvchi omil). Shulardan eng samarali bo'lgani rekombinantli odam granulociti — makrofagal koloniyani rag'batlantiruvchi omildir («leykomaks» nomi bilan chiqariladi), u granulositlar va monositlar proliferasiyasini kuchaytirish hamda kimyoterapiyadan so'ng suyak ko'migini tiklash uchun qo'llanadi.

Monoklonal antitanachalar — ular o'zlariga qarshi bo'lgan hujayralarni (antigenlarni) tanlab olish va faqat o'shalar bilan qo'shilish xususiyatiga ega. Shu sababli ulardan onkologiya amaliyotida 2 yunalishda foydalanish mumkin:

1. Davolash vositasi sifatida — o'sma o'sishini va rivojlanishini to'xtatish maqsadida.

2. O'tkazuvchi (tashuvchi) sifatida — o'smaga radionuklidlar yoki toksinlar yetkazib berish maqsadida.

Keyingi yo'nalish juda samaralidir. O'smaga qarshi preparatlarning yangi sinfini — immunotoksinlarni hosil qilish uchun jadal ilmiy izlanishlar olib borilyapti. Immunotoksinlar — bu o'simlik yoki hayvon toksinlari va monoklonal antitanachalar kon'yugatleri (birikmasi) (masalan, AQSh da risin asosidagi immunotoksin saratonini davolash uchun ishlatilmoqda)

3 Interleykinlar bilan ko'shma kultivasiya qilib faollashtirilgan kasal hayvon limfositlarini (periferik krndan yoki o'smaning uzidan olingan) davolash uchun qo'llash samarali natijalar bermokda.

Hozirgi paytda it qini sarkomasini davolashda uning tashqi va ichki omillar ta'sirida kanserogenezlanishi organizmdagi umumiy o'zgarishlarga olib keladi va mahalliy o'sma hosil bo'lishini ta'minlanishi aniqlangan. Itlarda qini sarkomasini davolashda bettatrondan foydalanish B.R. Lanushinskaya tomonidan taklif qilingan. V.Shelev (1985) va boshqalarning ta'kidlashicha, bu usul faqat nazariy tomondan asoslangan bo'lib, amaliyotga keng tadbiiq

etilmagan. Chunki bunday moslama hozirgacha birorta klinikada va fakultetda yo'q. Bundan tashqari betatronn veterinariyada ishlatish uchun ishlab chiqarilmaydi. Tibbiyot onkologiyasi amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan usullardan biri kiyoviy terapevtik moddalar va biologik preparatlardan foydalanish nafaqat organizmni himoya vositalari funksiyasini oshirishga yo'naltirilgan, balki ular o'smalarning o'sishini to'xtatish va ularni organizm bo'ylab tarqalishini oldini olish uchun ham yordam beradi.

Eksperimental onkologiyada rak kasalligiga qarshi bir qancha preparatlar sinovdan o'tkazilgan bo'lib, lekin klinik amaliyotda ulardan ba'zilarini qo'llash mumkin xolos. Afsuski o'smalarni o'sishini sekinlashtiradigan preparatlarga o'smalarning rezistentligi yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari ularning ko'pi organizmga umumiy ravishda salbiy ta'sir qiladi. Hozirgi paytda rak immunoterapiyasi bo'yicha intensiv ravishda foydali tajribalar olib borilmokda. Lekin onkologiya amaliyotida immunoterapiya usulini qo'llash bir qator chegaralanishlarga ega. Shunga qaramasdan organizmning o'zida blastomoz jarayonlarga qarshi rezistentligini oshirish amaliyotda dolzarb muammolardan biri bo'lib xisoblanadi.

Hayvonlarda operasiyadan keyin o'smaning organizmda tez tarqalishi odamlarga nisbatan kam ko'zatiladi. Ularda ayrim birlamchi o'smalar «portlash» xossasiga ega emas, shuning uchun hayvonlarda jarroxlik usuli bilan o'smalarni olib tashlash yaxshi natija beradi. O'sma qancha erta bosqichlarda olib tashlansa, davolash samarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar organizmda metastatik jarayonlar rivojlangan bo'lsa jarroxlik usuli yaxshi natija bermaydi. O'tkazilgan klinik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda o'smalarni jarroxlik usuli bilan davolashning yaxshi natija berishi quyidagi xolatlarga bog'liq:

1. O'sma sog'lom to'qimalar chegarasida iloji boricha o'sma hujayralarini qoldirmagan holatda atrof sog'lom to'qimalar bilan birgalikda olib tashlanishi lozim. Yana ham yaxshiroq natijaga erishish uchun o'sma elementlarini regional limfa tugun bilan olib tashlash maqsadga muvofiqdir.

2. Kasal hayvonlarni muvofaqiyatli davolash uchun o'smani olib tashlash bilan birgalikda organizmni himoya reaksiyalarini oshirishga e'tibor qaratish kerak.

Z. Jarroxlik operatsiya usuli bilan o'smani olib tashlash vaqtida ablastika va antiblastika qoidalariga rioya qilib residivlarning oldini olish mumkin.

4. Operatsiya vaqtida o'sma to'qimasini shikastlanishini oldini olish, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish: tez-tez asboblarni almashtirish, operatsiya vaqtida qayta sterilizatsiya qilish, qon oqishini to'lig'icha to'xtatish, qo'lni 2% xloramin bilan yuvib turish.

5. O'smalarni xirurgik usul bilan olib tashlash vaqtida narkoz va og'riqsizlantirishdan keng foydalanish lozim. Bunda anestetik moddalar faqat o'smani o'rab turuvchi to'qimalargacha yuboriladi, Katta o'smalarni olib tashlash vaqtida, ayniqsa ular to'qimalar orasida joylashgan bo'lsa, og'riqsizlantirish alohida qatlam-qatlam bo'ylab bajariladi, bu usul o'smani to'qimalardan ajrashishga yordam beradi.

Og'riqsizlantirish - umumiy og'riqsizlantirish uchun neyro-leptanalgiya o'tkaziladi, vena qon tomiriga 2,5 mg/kg 2,5% aminazin eritmasi va 1 mg/kg ketamin tana ogirligiga nisbatan mikdorda yuboriladi. Teri ostiga va o'sma atrofiga 0,5% novokain eritmasi infiltratsiya usuli bilan yuboriladi.

Immunoterapiya (organizm himoya kuchlarni oshiruvchi) usulini bajarish maqsadida 7,5 % li levamizol preparatini qo'llash tartibi qo'yidagicha: immunoterapiya usulini bajarishda levamizol preparati hayvon muskullari ichiga yuboriladi. Immun statusni kuchaytirish va kerakli darajada saqlab turish uchun preparat 2 marotaba 6 kun oralatib yuboriladi. Levamizol T-limfositlarning regulyator faoliyatini sti-mulyatsiya qiladi. Hujayrali immunitetni normallashtiradi. Interferon ishlab chiqishini kuchaytiradi va organizmning immun xususiyatlarini oshiradi.

I bob bo'yicha xulosa

1. Itlar orasida o'smalar muammosi eng keng tarqalgan patologiya bo'lib hisoblanadi.
2. Itlarda uchraydigan o'smalarining 25-40 % ni sut bezi o'smalari tashkil qiladi.
3. Ba'zi olimlarning ma'lumotlariga ko'ra veterinariya klinikasida qabul qilingan 2500 ta itlar orasida o'smalarni hayvon yoshiga qarab tarqalishini o'rganib, o'sma bilan kasallanish 8 yoshni tashkil qiladi.
4. O'smalar bilan kasallanish olti yoshga borib keskin ko'payadi va shu darajada 10-13 yoshgacha davom etadi.
5. O'smalar bilan kasallangan itlarning 50 % ini 6-10 yoshliklari, 25 % ni 5 yoshgacha bo'lgan itlar, qolgan 25 % i 10 yoshdan kattalari tashkil qiladi. O'sma bilan kasallangan itlar 1-5 yoshlar orasidagi itlar guruhiga kiradi, 27 % bir yoshgacha 5 % i 10 yoshdan kattasini tashkil qiladi.
6. Organizmda giperestrogenizasiya bachadon va sut bezi o'smalarini rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi.
7. Gormonlarni konserogenezda qatnashishi quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1-to'g'ridan-to'g'ri kanserogen ta'sir qilish; 2-kimyoviy kanserogen, nurlantirish yoki viruslar orqali o'smalarining o'sishiga qitqlovchi ta'sir etishi; 3-kimyoviy kanserogenlarni metabolizmga ta'sir etishi; 4-immunitetga ta'sir qilishi.

II bob. Xususiy tadqiqotlar

2.1. Tadqiqotlar obyekti va uslublari

Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar Samarqand qishloq xo'jalik instituti, Veterinariya fakulteti, "Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmokologiya" kafedrasida qoshidagi xirurgik klinikada, Samarqand viloyat Ichki Ishlarga qarashli xizmat itlarning pitomnigida bajarildi.

Tadqiqotlarni o'tkazishda quyidagi ishlarning bajarilishi rejalashtirilgan:

1. Samarqand shaxar sharoitida itlar orasida o'smalarni tarqalishini va turini aniqlash.
2. O'sma bilan kasallangan itlar qon ko'rsatkichlarini morfologik, bioximiyaviy va immunologik taxlil qilish.
3. O'smalarni itlarning immun tizimiga ta'sirini aniqlash.
4. Itlarda o'smalarni dastlabki bosqichlarda aniqlashni zamonaviy usullarini ishlab chiqish.

Tajriba davomida klinikaga keltirilgan itlar orasidan o'sma bilan kasallangan itlar ajratib olinib, ulardan kon olinib immunologik tekshirildi.

Tajribalarni o'tkazishda quyidagi klinik tekshirish usullaridan foydalandik.

1. **Anamez ma'lumotlarini yig'ish.** Ma'lumotlar kasal hayvon egasidan yoki unga qaraydigan odamdan so'rab olinadi. Bunda asosan quyidagilar aniqlanadi: hayvonning saqlanish, oziqlantirish va ekspluatasiya sharoitlari; o'sma qachon paydo bo'lganligi, uning soni, o'sish darajasi, hayvon organizmiga salbiy ta'siri, yordam ko'rsatilgan bo'lsa kim tomondan va qachon yordam ko'rsatilganligi.

2. **Ko'rikdan o'tkazish usuli:** bu usul yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin: hayvonning umumiy xolati, o'smaning joylashgan joyi, shakli, kattakichikligi, soni, o'smadan chiqib turgan suyuqlikning miqdori va xarakteri, shilliq pardalar xolati va rangi.

Z. **Paypaslash usuli:** o'sma atrofidagi to'qimalardagi mahalliy harorat va og'riq bor yo'qligi, o'sma hosil bo'lgan qatlamda to'kimalarning holati

flyuktuasiya va kreptasiya tovushlari bor yo'qligi, limfa tugunlarida metastazlarning uchrashini aniqlash mumkin.

4. **Punksiya (sanchish) usuli:** asosan differensial diagnostika uchun qo'llaniladi. Chunki o'smalarni gemotoma, limfoekstravazat, dabbadan farqlash kerak. Gemotomada qon, limfoekstravazatda sarg'ish rangdagi suyuqlik, dabbalarda esa dabba xaltasi, teshik va unga tushgan organlar bo'ladi.

5. **Gistologik tekshirish usuli:** operatsiya o'tkazish jarayonida olib tashlangan o'sma patogistologik laboratoriyaga yuboriladi. U yerda gistologik analiz qilinib o'smaning turi aniqlanadi va qo'yilgan diagnoz tasdiqlanadi.

6. **Auskultasiya va perkussiya usullari:** hayvon o'pkasidagi tovushlar, o'pkaning chegaralari, patologik to'qimani palpatsiya yoki taqillatib urib ko'rilganda hosil bo'lgan tovushlar xarakteri aniqlanadi.

7. **Kondagi immunologik ko'rsatkichlarni aniqlash.**

2.2. **Immunologik tekshirishlar**

1. **Ye – rozetok metodi.**

Metodning asosiy tamoyillari.

Hayvonlar organizmidagi immun tizimning asosiy vositalaridan bo'lgan T – limfositlar organizmda timusda ishlab chiqariladi. T – limfositlar qon eritrositlari bilan spontan aloqalar hosil qilish hususiyatiga ega. Qon eritrositlarining reseptorlari timusga bog'liq bo'lgan limfositlar uchun markeri sifatida qaraladi. Rozetka hosil qiluvchi hujayralarni (ROK) aniqlash T – limfositlarni preparativ ajralishi tahlili metodi uchun standart metod bo'lib xisoblanadi. Tekshirilayotgan va mos keluvchi limfositlar (itlar uchun odam yoki dengiz cho'chqasi eritrositlari) 1:50 nisbatda ROK stabilizatori ta'sirida aralshtirilib, inkubasiyalangandan so'ng uch va undan ko'p eritrositlar bilan bog'langan limfositlar soni xisoblanadi.

Kerakli materiallar va jihozlar:

Tajribani o'tkazish uchun 0.15 M NaCl, 1M NaON yordamida rN 7 bo'lgan igla – MEM muhiti, konservatlarsiz geparin, Zichligi 1,077 g/ml bo'lgan fikol – vizotrast eritmasi, 0.15 M NaCl'dagi 0.2 % li tripan ko'ki.

Shuningdek laboratoriya jihozlardan 10 ml lik sentrafuga probirkalari, paster pipetkalari, sentrafuga, geatokrit sentrafuga, hujayralarni sanash uchun kamera, faza kontrasli optikali mikroskop, hujayralarni resuspensiyalash uchun rotor kerak bo'ladi.

I. Limfositlarni olish

ROzetka hosil qiluvchi hujayralarni aniqlash uchun iloji boricha autolitik eritrositlar bilan minimal darajada ifloslangan limfositlarni olish kerak bo'ladi. Buning uchun Beyum metodidan foydalaniladi: 2 ml geparin bilan aralashtirilgan qon (100 T.B. geparin/ml) 6 ml igla – MEM muhiti bilan aralashtiriladi. So'ngra u sentrafuga probirkasiga 2 mldan qilib quyiladi. Sentrafuga 40 minut davomida 600 oborotda aylantiriladi. Limfositlar oq rangdagi chiziqcha ko'rinishida eritmada to'plana boshlaydi.

Limfositlar paster pipetkasi yordamida so'rib olinib, igla – MEM muhitida yuviladi, 10 minutdan 3 marta sentrafugalanadi. Natijada suspenziyaning zichligi 3×10^6 hujayra/ml holatiga keltiriladi.

II. Inkubasiyalash

0.15 M NaCl da uch marta yuvilgadan so'ng eritma igla – MEM muhitida 0.5%li suspenziyaga aylantiriladi. Limfosit va eritrositlarning to'g'ri olingan hajmda aralashtiriladi va (masalan 0.5 ml) sentrafuga probirkalariga joylashtiriladi. 5 minut 200 oborotda sentrafugadan o'tkaziladi. So'ngra 4^oSda qorong'i joyda sutka davomida saqlanadi.

III. Natijalarni baholash

Tekshirish davomidagi eng muhim bosqich hosil bo'lgan cho'kmani resuspensiyalash jarayonidir. Tekshirish davomida shunday aniqlik bilan ishlash talab qilinadiki, sentrifuga probirkalarining aylanishi davomida ularning tebranishi va aylanishi natijasida rozetkalar qimirlashidan buzilishlar kelib chiqishi mumkin. (tebranish burchagi 45^oS, 6 ayl/min, 15 minut) Paster pipetkalari yordamida sentrifugadan o'tkazilgan cho'kma sanoq kameralariga quyiladi va shartli fazali kontrasli mikroskopda ROK ni aniqlash maqsadida 200 dan ko'p limfositlar sanaladi. Sanalgan ROK yordamida uch va undan ortiq

dgezirlovchi eritrositlar vbilan limfositlar sanaladi. Hujayralaring yashovchanlik hususiyati ularni 0.2 % li tripan ko'ki eritmasi bilan bo'yab aniqlanadi. Rozetkalar 0.8 %li glutar aldegid eritmasida qotiriladi.

2. Modifikasiya metodi

Olingan qonni keraklicha miqdorini qisqartirish uchun quyidagi modifikasiya metodidan foydalaniladi: Probirkaga 200 mkl igla – MEM muxiti va 100 mkl limfosit suspenziyasi (3×10^5 hujayra) hamda 100mkl 5%li eritrositlar suspenziyasi olinadi. Aralashma 37°S da 10 minut davomida inkubasiyalanadi va resuspenziyalanadi. Shundan so'ng 15 minut davomida senrifugalanadi va olinib 4°Sda forong'i joyda saqlanadi. Ushbu bajarilgan ishlar natijasida 61 ± 0.8 % ROK rozetka hosil bo'lishini stabillaydi va 80%ga cha ROK beradi. AET da ishlov berilgan EB ni tayyorlash: 1 ml yuvilgan eritrositlar cho'kmasi 4 ml AET eritmasi (0.42 g AET, 10 ml distillangan suvda 4M NaCl yordamida rN 9 ga yetkaziladi) bilan aralashtiradi.

Aralashma 15 minut davomida 37°Sda inkubasiyaladi. Keyin 0.15 M NaCl da z marta yuviladi. Yuvilgandan so'ng cho'kma hosil qilguncha kuzatiladi. hosil bo'lgan cho'kma igla – MEM muhiti va 20 % li sigir embrioni zardobida to 10 %li suspenziya olingunga qadar suspenziyalanadi. Rozetkalarni olish uchun 0.5 ml limfosit suspenziyasi (2×10^6 hujayra) 0.25 % li sigir embrioni zardobi va 6-8 tomchi AET-EB aralashtiriladi. Aralashma 5 minut davomida 25 oborotda senrifugalanadi va 4°Sda qorong'u joyda saqlanadi. Eritrositlar ISA yordamida stabilizasiya qilsa bo'ladi. Buning uchun 50mkl limfositlar suspenziyasi (2×10^6 hujayra) 50 ml 1%li eritma suspenziyasi va 20 mkl ISA bilan aralashtiriladi, hamda ularni mayda shishali probirkada 75 minut 4°Sda inkubasiyalanadi. Keyin 200 mkl igla – MEM muhiti quyiladi va so'ngra mikroskop yordamida sanaladi.

T-limfositlar subpopulyasiyasini teofillin bilan ishlov berib rozetka hosil qilish metodi yordamida aniqlash

Metodning asosiy tamoyili

T – limfositlarga teofillin bilan ishlov berilganda eritrositlar bilan rozetkalar hujayralarini hosil qilishini boshqarish to'xtatiladi. Tekshirish davomida shu ma'lum bo'ldiki, teofillinga nisbatan sezuvchanlik yuqori bo'lgan hujayralarda supressorlik va sitotoksik aktivlikka ega bo'ladi. Teofillin ta'siriga chidamli bo'lgan hujayralarda esa asosan T – limfositlar ularning yordamchilari (T – xelperlar) vazifasini bajaruvchilar sifatida namoyon bo'ladi.

Kerakli materiallar va jihozlar:

Tajribani o'tkazish uchun 0.15 M NaCl, 1M NaON yordamida rN 7 bo'lgan igla – MEM muhiti, konservatlarsiz geparin, Zichligi 1,077 g/ml bo'lgan fikol – vizotrast eritmasi, 0.15 M NaCl'dagi 0.2 % li tripan ko'ki, 10 ml 199 muhiti.

Shuningdek laboratoriya jihozlardan 10 ml lik sentrafuga probirkalari, paster pipetkalari, sentrafuga, geatokrit sentrafuga, hujayralarni sanash uchun kamera, faza kontrasli optikali mikroskop, hujayralarni resuspensiyalash uchun rotor kerak bo'ladi.

Reaktivlarni tayyorlash:

18 mg (0.01 M) teofillin kristalli 10 ml 199 muhitida eritiladi. Eritma qo'llanilishidan oldin 40-45°S haroratda suv hammomida teofillin kristallari to'liq eriguncha qizdiriladi. So'ngra eritma suv hammomidan olinib, 37°S haroratgacha sovutiladi va reaksiya uchun foydalanishga yaroqli holatga keladi.

1. 0.1 ml MNK (konsentratsiyasi 2×10^6 hujayra/ ml) suspenziyaga 0.1 ml, 0.01 mol teofillin eirmasi hamda 199 muhiti qo'shilib, tajriba va nazorat eritmalari tayyorlanadi.

2. Tayyor bo'lgan MNK suspenziya (tajriba va nazorat eritmalari) 37°S haroratda 60 minut davomida inkubatsiyalanadi.

3. So'ngra har bir hujayra priborlari (MNK + Teofillin va MNK + 199 muhiti) yuvilmasdan spontan rozetka hosil qilish reksiyasida foydalaniladi.

4. Tajriba davomida MNK va teofillin bilan teofillinga chidamli hujayra Ye – ROK lar soni xisoblanadi. Boshqa tajribalar davomida intakt hujayralar bilan 199 muhitida Ye – ROK hujayralari soni sanaladi.

5. Teofillinga sezuvchanligi yuqori bo'lgan Ye – ROK hujayralar soni umumiy 199 muhitidagi va teofillingan chidamli bo'lgan Ye – ROK hujayralari ayirmasi sifatida xisoblab chiqiladi.

$$Ye-ROK_{199 \text{ muhitida}} - Ye-ROK_{\text{teofillinga chidamli}} = Ye-ROK_{\text{teofillinga sezuvchan}}$$

Bu ko'rsatkichni quyidagi nisbatda ham aniqlash mumkin:

$$Ye-ROK_{\text{teofillinga chidamli}} / Ye-ROK_{\text{teofillinga sezuvchan}} = \text{indeks}$$

Asosiy ko'rsatkichlar:

Normada teofillinga chidamli Ye-ROK hujayralari o'rtacha 50-63 % (19-67% farq) xisobida olinadi. Teofillinga sezuvchanligi yuqori Ye-ROK hujayralari o'rtacha 17-20% (7-38% farq) miqdorda bo'ladi.

2.3 Gistologik tekshirishlar

Mikroskopik tadqiqotlar o'tkazish uchun ishlatiladigan obyekt - gistologik preparat quyidagi ikki asosiy talablarga javob berishi kerak: 1) preparat orqali yorug'lik nurlari o'tishi, ya'ni u tiniq bo'lishi;

2) uning strukturalari kontrastli bo'lishi, ya'ni nur sindirish ko'rsatkichi bo'yicha yetarli darajada bir-biridan farq qilishi lozim.

Gistologik preparat surtma (masalan: qon, suyak iligi, so'lak, sperma, orqa miya suyuqligi va boshqalarning surtmasi), organlarning izi (masalan: taloq, timus, jigarniki), yupqa parda (masalan: biriktiruvchi yumshoq to'qima, qorin pardasi, plevra, miyaning yumshoq pardasi) yoki yupqa kesma bo'lishi mumkin. Ko'pchilik hollarda to'qima va organlarning yupqa kesmasidan foydalaniladi. Gistologik preparatlar maxsus ishlov berilmasdan ham o'rganilishi mumkin. Masalan, qondan tayyorlangan surtma, organlarning izi, yupqa parda yoki organning kesmasi bo'yalmasdan ham mikroskop ostida kuzatilishi mumkin. Lekin, strukturalarning kontrastliliksi kuchsiz bo'lganligi sababli ular odatdagi yorug'lik mikroskopida yaxshi aniqlanmaydi va maxsus mikroskoplar (fazo-kontrastli va b.) qo'llashni talab qiladi. Shuning uchun ko'pincha maxsus ishlov berilgan, fiksasiya qilingan, qattiq muhitga joylashtirilgan va bo'yalgan preparatlardan foydalaniladi.

Preparatlar tayyorlash uchun quyidagilarni bajarish kerak: 1) material olish va fiksasiya qilish; 2) materialni yuvish; 3) suvsizlantirish; 4) selloidin yoki parafinga quyib zichlashtirish va blok tayyorlash; 5) mikrotom yordamida kesmalar tayyorlash; 6) tayyorlangan kesmalarni bo'yash va 7) kesmani balzam yordamida buyum oynasiga yopishtirib preparat tayyorlash

1. *Tekshirish uchun materiallar olish.*

Preparatlar tayyorlash uchun kichik shikastlanish bo'lgan joylar to'lig'icha olinadi. Agan organ yoki to'qimaning shikastlanish darajasi katta bo'lsa u holda shikastlangan joyning markaziy qismi va periferik qismlari hamda o'zgargan yoki kam o'zgargan to'qimalar kesib olinadi. Agar o'zgarishlar organlarnig xar xil joylarida bo'lsa har bir shikastlangan joylardan to'qimalar shunday kesib olinadiki, ushbu jarayonni yoki shikastlanishning har bir bosqichi ushbu bo'laklarda aniq namoyon bo'lspn. Bo'lakcha imkoniyat boricha tez olinishi, uning kattaligi 0,5 x 0,5 x 0,2 sm dan oshmasligi kerak.

2. *Olingan materallar in fiksasiya qilish.*

fiksator (spirt, formalin, og'ir metallarning tuzlari, osmiy kislotasi, maxsus fiksasiya qiluvchi aralashmalar)ga solish yo'li bilan erishiladi. Formalinda fiksasiya qilish uchun 12 foizli formalin eritmasi fiksasiya qilinadigan bo'lakcha-namunalardan hajmi bo'yicha 20-30 marta ko'p miqdorda olinadi. Bunda fiksasiya 24 soat davom yetadi.

Fiksator ta'sirida to'qima va organlarda murakkab fiziko-kimyoviy o'zgarishlar ro'y beradi. Bulardan eng muhimi oqsillarning qaytmas koagulyasiyasi bo'lib, uning natijasida to'qimalardagi hayotiy jarayonlar to'xtaydi, strukturalar esa o'lib, fiksasiyalanadi. Fiksasiya bo'lakcha-namunalarning zichlashishi va hajmining kichrayishiga, shuningdek, hujayra va to'qimalarning bo'yalish xususiyatlarining yaxshilanishiga olib keladi. Formalinda fiksasiya qilingan bo'lakchalar 24 soat mobaynida sekin oqib turuvchi vodoprovod suvida yuviladi.

3. To'gimalarni suvsizlantirish.

Buning uchun bo'lakchalar quvvati oshib boruvchi (60° -, 70° -, 80° -, 90° -, 96° - va 100° li) spirtlar batareyasidan o'tkaziladi. Bo'lakchalar har bir spirtida 24 soatgacha saqlanadi va natijada to'lig'icha suvsizlanadi. Suvsizlantirilgan bo'lakchalar 100° spirt va efirning teng miqdordagi aralashmasi orqali ham o'tkazilishi lozim. Chunki, zichlashtiruvchi modda - selloidin 100° li spirtida erimaydi, balki 100° li spirt va efirning aralashmasida eriydi.

Spirt-efir aralashmasi orqali o'tkazilgan bo'lakchalar ma'lum muddatga selloidinning suyuq (4 foizli) va quyuproq (8 foizli) eritmalariga solinadi. Selloidindan chiqarib olingan va yog'och bo'lakchasiga yopishtirilgan obyekt - blok 70° li spirtida saqlanadi.

4. Kesma tayyorlash

Kesma tayyorlash uchun maxsus asbob - mikrotom ishlatiladi. Mikrotomda selloidinli bloklardan 10-15 mkm qalinlikdagi kesmalar tayyorlash mumkin. Zichlashtirish uchun selloidin o'rniga parafin ishlatilganda 4-6 mkm qalinlikdagi kesmalar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

1. Gistologik tuzilmalarni bo'yash

Bo'yash usullari juda xilma-xil bo'lib, ularni tanlashda tadqiqotning maqsadlariga qarab ish tutiladi. Ular ishqorli (asos), kislotali va neytral bo'yoqlarga bo'linadi. Azur II va gematoksilin bo'yoqlari asos bo'yoqlarga misol bo'lib, hujayralar o'zagini binafsha (ko'k-binafsha) rangga bo'yaydi, yeozin yesa kislotali bo'yoq bo'lib, sitoplazma va hujayraaro moddalarni och qizil-sariq rangga bo'yaydi. Ayrim strukturalarning muayyan bo'yoqlarni tanlab qabul qilishi ularning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari bilan belgilanadi. Kislotali bo'yoqlar bilan yaxshi bo'yaladigan strukturalar asidofil (oksifil, yeozinofil), asos bo'yoqlar bilan bo'yaladiganlari - bazofil strukturalar deyiladi. Ham kislotali, ham asosli bo'yoqlarni qabul qiluvchi strukturalar neytrofil (geterofil) hisoblanadi.

Bo'yalgan preparatlarni odatda quvvati oshib boruvchi spirtlarda suvsizlantirilib, ksilol, benzol, toluol yoki ayrim moylar yordamida ortiqcha bo'yoq chiqarib yuboriladi (tiniqlashtiriladi). Ko'p marta foydalanish uchun tayyorlanadigan preparatlarni uzoq muddatga saqlash uchun gistologik kesmalar predmat va qoplagich shishalar orasiga Kanada balzami yoki boshqa shunga o'xshash moddalar bilan yopishtiriladi. Bir marta foydalanish uchun preparat tayyorlanganda balzam o'rniga gliserin ishlatiladi.

2.4. O'sma bilan kasallangan itlarni immunologik ko'rsatkichlari

Klinik immunologiya immunitet to'g'risidagi fan bo'lib, sog'los va kasal hayvonlarni patologik jarayonlari yallig'lanish, regenerasiya, o'smalarni o'sishida immun reaksiyalarni rolini urganadi. Klinik immunologiyani ko'pgina vazifalari bo'lib, ulardan dastlabkisi, bu xar xil patologik xolatlarda immun tizimdagi buzilishlarini kelib chiqishi, kechikishi va oqibati qonuniyatlarini o'rganish va ularni korreksiya qilishni ishlab chiqish yotadi.

Immunologiyani XX asrdagi eng katta yutug'i bu noinfeksion immunologiyani paydo bo'lishi xisoblanadi. Noinfeksion immunologiya asosida organizmga yuborilgan begona antigenlarga qarshi antitelalar ishlab chiqish yotadi. Bundan tashqari immun javob mexanizmi asosida ikki xil xujayralar T va V limfositlar borligi aniqlandi. Xar ikki limfositlar, ya'ni T-limfositar hujayralar va V-limfositar hujayralar gumoral immunitetni hosil qilishda asosiy rol ni o'ynaydi.

T-limfositlarni organizmdagi bajaradigan funksiyalari xilma xil bo'lib, ular xujayraviy immunitetni, trnasplantasion immunitetni va sarotonga qarshi ximoyani hosil qilish kabi muxim vazifalarni bajaradi.

T-limfositlar o'z navbatida funksional faolligi bo'yicha bir necha xil xujayralarga blinadi. Ya'ni T-limfositlar killerlar, T-xelperlar va T-supressorlar.

T-killerlar – Organizmdagi vazifasi bu transplantantlarni ajratish, o'smalarga va viruslarga qarshi ximoya qobiliyatini namoyish etish bo'lib xisoblanadi.

T-xelperlar esa boshqa immun hujayralarni kooperasiyasida qatnashadi va V-limfositlarning faoliyatini kuchaytiradi.

T-supressorlar ular tormozlash xususiyatiga ega bo'lib, ayniqsa antitelalarni xosil qilishini rag'batlantiradi.

V-limfositlarni organizmdagi asosiy roli bu antitelalar va immunoglobulinlarni xosil qilishdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, patologik jarayonlarda immun tizimni o'rganish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bizlar oldimizga hayvonlarda uchraydigan o'sma kasalliklarida immun tizimida bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Hayvonlar orasida, ayniqsa itlar orasida xar xil turdagi o'smalar keng tarqalgan. Samarqand Qishloq Xo'jalik instituti, Veterinariya fakultetiga qarashli xirurgiya bo'limiga keltirilgan o'sma bilan kasallangan itlarda, o'smalarni diagnostik usullar yordamida o'sma turi aniqlangandan keyin, operasiyagacha va operasiya o'tkazilgandan keyin ularni immun tizimini xolati aniqlandi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, operasiyagacha sut bezi adenokarsinomasida T-limfositlar miqdori nisbiy ko'rsatkichlari 41 ± 1.0 %, mutloq ko'rsatkichlari esa 377.2 ± 0.8 %, V-limfositlar miqdori nisbiy ko'rsatkichlari $5.0 \pm$ %, Mutloq ko'rsatkichlari esa 46.0 ± 0.1 % ko'rinishni namoyon etdi. Shulardan T-xelperlar 29.0 ± 0.5 %, T-supressorlar 9.0 ± 0.05 % ga teng.

Terinning yassi xujayralari saratoni bilan kasallangan itlar qoni T-limfositlari miqdori nisbiy 39 ± 1.0 %, mutloq ko'rsatkichlari 264 ± 1.2 %, V-limfositlar nisbiy ko'rsatkichlari 4.0 ± 0.6 %, mutloq ko'rsatkichlari 27.1 ± 0.8 %, shulardan T-xelperlar soni 27 ± 0.4 %, T-supressorlar soni 8 ± 0.4 %.

Transmissiv tanosil sarkomada T-limfositlar miqdori nisbiy ko'rsatkichlari 35 ± 0.9 %, mutloq ko'rsatkichlar 191.1 ± 1.01 %, V-limfositlar miqdori nisbiy ko'rsatkichlari 4 ± 0.6 %, nisbiy ko'rsatkichlari soni 21.8 ± 0.7 %, shulardan T-xelperlar 24 ± 0.8 %, T-supressorlar 6 ± 0.02 % takshkil etadi.

Sut bezi musinozli adenosarkomasida T-limfositlar miqdori nisbiy ko'rsatkichlar miqdori 38 ± 1.0 %, mutloq ko'rsatkichlari 1039 ± 1.55 %, V-limfositlar nisbiy ko'rsatkichlari 6 ± 0.02 %, mutloq ko'rsatkichlari 164.1 ± 1.05 %, shulardan T-xelperlar 28 ± 0.5 %, T-supressorlar 9 ± 0.05 %.

Sut bezi kanalchalarini adenokarsinomasida T-limfositlarni nisbiy ko'rsatkichlari 35 ± 0.9 %, mutloq ko'rsatkichlari 151.2 ± 0.84 %, V-limfositlarni nisbiy ko'rsatkichlari 7 ± 0.6 %, mutloq ko'rsatkichlari 30.2 ± 1.1 %, shulardan T-xelperlar 27 ± 0.45 %, T-supressorlar 7 ± 0.05 % tashkil etadi.

Sut bezini mug'izlashgan yassi xujayralar saratoni T-limfositlar soni, nisbiy ko'rsatkichlari 34 ± 0.095 %, mutloq ko'rsatkichlari 465 ± 10.08 %, V-limfositlar nisbiy ko'rsatkichlari 4 ± 0.6 %, mutloq ko'rsatkichlari 54.7 ± 1.3 %.

O'sma bilan kasallangan itlar qonining operasiyadan oldingi immunologik tekshirish natijalari

T / r	O'smalarning turi	Hayvonlar soni	T-limfositlar (ROK) soni, %		V-limfositlar (ROK) soni, %		Soni	
			A	B	A	B	T-xelperlar	T-supressorlar
1.	Sut bezi adenokaprsinomasi	5	41±1,0	377,2±0,8	5,0±0,7	46±0,1	29±0,5	9±0,05
2.	Terini yassi xujayra raki	3	39±1,0	264±1,2	4,0±0,6	2,71±0,8	27±0,4	8±0,04
3.	Transmissiv tanosil sarkoma (jinsiy a'zo)	3	35±0,9	191,1±1,01	4,0±0,6	21,8±0,7	24±0,8	6±0,02
4.	Musinoz adenosarkoma (sut bezi)	3	38±1,0	1039,6±1,5 5	6±0,02	164,1±1,0 5	28±0,5	7±0,05
5.	Sut bezini kanalchalarni adenokarsinomasi	3	35±0,9	151,2±0,84	7±0,6	30,2±1,1	27±0,45	7±0,05
6.	Sut bezini mug'izlanmagan yassi-xujayrali raki	3	34±0,9 5	465±1,08	4±0,6	54,7±1,3	26±0,5	9±0,05

Eslatma: A - nisbiy (%) B - mutloq (1mkl)

2.5. Itlar o'smalarini xirurgik yo'l bilan davolash

Veterinariya amaliyotida o'smalarni xirurgik yo'l bilan davolash asosiy usul bo'lib hisoblanadi. (P.F.Terexov, 1983).

Klinik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda xirurgik usul bilan o'smalarni davolash, eng samara beruvchi usul bo'lib xisoblanadi.

Dissertasiyani bajarish vaqtida bizlar o'sma bilan kasallangan 9 bosh itda xirurgik yo'l bilan davolash o'tkazdik.

Og'riqlantirish - umumiy og'riksizlantirish uchun neyrolep-tanalgiziya o'tkazildi, vena qon tomiriga 2,5% aminazin eritmasi 2,5 mg/kg va ketamin 1 mg/kg miqdorda tana og'irligiga nisbatan yuborildi. Teri ostiga va o'sma atrofiga 0,5% novokain eritmasi infiltrasiya usuli bilan yuborildi.

Sut bezini adenokarsinomasini olib tashlash operatsiya texnikasi

It yotgan xolatda fiksasiya qilindi, operatsiya maydonchasi tayyorlandi. Sut bezini adenokarsinomasida operatsiya usuli bilan barcha tugunlar olib tashlanishi kerak bunda ablastikaga rioya kilib shu joyning anatomo-topografik xususiyatlarini inobatga olish kerak.

Operatsiya o'tkazish vaqtida urchiksimon kesim bajariladi. Teri kesilgandan keyin uni qaychi yordamida atrofdagi to'kimilardan ajratib olish lozim. Qon tomirlardan oqayotgan qon mexanik usul bilan to'xtatib boriladi, ya'ni burash, chok ko'yish.

O'smani o'sib chiqqan sut bezidagi bo'limi bilan olib tashlash kerak. Chunki ularning limfa tomirlari bir biri bilan bog'lik.

O'sma to'ligicha olib tashlangandan keyin, kon oqishni to'likcha to'xtatish lozim. Jarohat quritilgandan keyin ortiqcha to'qimalar kesilib jarohat choklanadi. Operatsiyadan keyingi davrda jarohatda infeksiyaning rivojlanishini oldini olish maqsadida keng spektrli antibiotiklar yuboriladi.

2.6. Operasiyadan keyin itlar immun tizim faoliyatini kuchaytirish

Xirurgiya bo'limiga keltirilgan o'sma bilan kasallangan itlarni operativ davolashdan keyin immunitetini stimulyasiya qilish maqsadida itlar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruh itlarga levomizol preparati (haftada 2 marta 75 mg dozada muskul orasiga inyeksiya) qilindi. Ikkinchi guruh itlarga esa gammavit (bir hafta davomida har kuni bir marta 2 ml dozada muskul orasiga inyeksiya) preparati qo'llanilib, quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchi guruhdagi sut bezi adenokarsinomasi bilan kasallangan itlarga operasiyadan keyin levamizol preparati inyeksiya qilinganda T va V-ROK larning darajasini o'sishi, T - xelperlar va T - supressorlar darajasini o'zgarishi qayd etildi.

